

UMUMIYFOYDALANUVDAGI TUMAN AVTOMOBIL YO‘LLARI TARMOG‘INI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (ISHTIXON TUMANI MISOLIDA)

Xoliqov Alisher Isan o‘g‘li Ph.d.,

Davurov Yoqubjon Bohodir o‘g‘li magistrant.

Toshkent davlat transport universiteti

Mamlakatlarining rivojlanishida transport infratuzilmasi asosiy rol o‘ynaydi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yo‘l tarmog‘i keng tizimga egadir. Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri yo‘l sanoati hisoblanadi. Yaxshi rejalashtirilgan yo‘l tarmog‘i iqtisodiyot uchun foydali o‘sislarni olib keladi. Yaxshi holatda yo‘llar transport xarajatlarini kamaytirish, savdoni-sanoatni oshirish va bozorni kengayishini ta‘minlaydi. Yaxshi tashkil etilgan bu transport tizimida, ko‘proq odamlarga mamlakat bo‘ylab sayohat qilish, ko‘chmas mulk sotib olish, boshqa hududlarda ishlash va boshqalarni bajaradi. O‘zbekiston o‘z tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlariga ko‘ra rivojlanmoqda. Jahon moliyaviy inqirozini bartaraf etishning eng muhim choralaridan biri yo‘l va avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash xisoblanadi.

Bugungi kunda transport xarajatlarini kamaytirish, avtomobil yo‘llarini transport vositalarini o‘tkazuvchanlik quvvatini (yuk ko‘tarish qobiliyatini), masofaning qisqaligi, yo‘lning tekis va ravonligi, yo‘l elementlari bilan ta‘minlashni oshirish orqali amalga oshirilmoqda. Bunda avtotransport vositalarining texnik holatiga, hamda transport logistikasini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratilgan. Biroq transport xarajatlarini kamaytirish takomillashgan avtomobil yo‘l tarmog‘lariga ham bog‘liq bo‘ladi. Yuqori darajada rivojlangan va samarali transport tizimi logistik markazlarni yaratish va investsiyalarni jalb etishda asosiy omil sifatida qaraladi.

Respublikamizda transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘pgina salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari hamda amaliyotchilari tomonidan avtomobil yo‘li tarmog‘ini qulay rivojlantirish borasida loyihalarni amalga oshirishni xarakterlovchi quyidagi mezonlar

o'rganilgan va tavsiyalar berilgan: istiqboldagi harakat jadalligi; yuk va passajirlarni tashish xarajatlari; yo'lni ta'mirlash va saqlash xarajatlari; yo'llarni qurish xarajatlari va moliyalashtirish manbalari ko'lami; punktlar o'rtasidagi oraliq masofa; punktlar o'rtasidagi harakat vaqti; avtomobilning harakatlanish xavfsizligi; transport vositalari harakat tezligi; avtomobil yo'lining texnik ekspluatatsion ko'rsatkichlari; avtomobil yo'llaridan foydalanish darajasi; xududdardagi axoli zichligi; xududdardagi xukumat dasturlari ko'lami; investission obyektlar miqdori, tadbirkorlik obyektlari va ularga olib boruvchi yo'llar holati v.h.k..

Mavjud usullarning amaliyotda keng qo'llanilishiga qaramasdan hudud doirasida mazkur usullardan tizimli foydalanish etarli darajada emas. Optimal variantli yo'l tarmog'ini tadqiq etish bilan yo'l tarmog'i istiqbolini belgilashga bog'liq masalalarni ilmiy asoslangan holda yechish maqsad va vazifalardan kelib chiqib, har bir xududlardan olinadigan holatlar uchun optimallik mezoni olinadi. Madomiki, yechimni izlash har xil qarama qarshi omillarni o'zida aks etar ekan, bunda mos maqsad va vazifalarning chegaraviy shartlari va cheklovlarni o'rnatish kerak.

Yo'l tarmog'ini tadqiq etish bilan bog'liq masalalarni ilmiy asoslangan holda yechish, maqsad va vazifalardan kelib chiqib, har bir xududlardan olinadigan holatlar uchun optimallik mezoni ishlab chiqish. Madomiki, yechimni izlash har xil qarama qarshi omillarni o'zida aks etar ekan, bunda mos ravishta maqsad va vazifalarning chegaraviy shartlari va cheklovlarni o'rnatgan xolda aniq bir tizimni shakillantirish maqsadlari belgilangan.


Tanlab olingan xududda tadqiqotni amalga oshirishni xarakterlovchi qo'yidagi faktorlar (istiqboldagi harakat jadalligi; yuk va passajirlarni tashish xarajatlari; yo'lni ta'mirlash va saqlash xarajatlari; yo'llarni qurish xarajatlari va moliyalashtirish manbalari ko'lami; punktlar o'rtasidagi oraliq masofa; punktlar o'rtasidagi harakat vaqti; avtomobilning harakatlanish xavfsizligi; transport vositalari harakat tezligi; avtomobil yo'lining texnik ekspluatatsion ko'rsatkichlari; avtomobil yo'llaridan foydalanish darajasi; xududdardagi axoli zichligi; xududdardagi xukumat dasturlari ko'lami; investission obyektlar miqdori, tadbirkorlik obyektilariga olib boruvchi

yo'llar holati)ni shakillantirgan holda avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirishni istiqbolli tizimni ishlab chiqish vazifalri quyilgan.

Avtomobil yo'l tarmog'i holatining sifati va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish uchun korrelyatsiya-regressiya modellashtirish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyati Ishtixon tuman hududidan o'tuvchi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tadqiq qilindi.

Ishtixon tumani bo'yicha umumiy foydalanishdagi yo'llarning uzunligi, jami 314 kmni tashkil qiladi




■ Xalqaro ■ Davlat ■ Mahalliy


Bugungi kunda tumandagi mavjud yo'l tarmog'ining 41.4% qismida qoplam yuzasida xar-xil turdagi nuqsonlar mavjud bo'lib 130 km avtomobil yo'li ta'mirtalab xolatga kelib qolgan shudan: 6 km Xalqaro ahamiyatdagi, 25 km Davlat ahamiyatidagi va 99 km Mahalliy ahamiyatdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ta'mirtalab axvolga kelib qolgan.

Bundan tashqari tumandagi avtomobil yo'llarining va yo'l elementlaring saqlanganlik darajasi qoniqarsiz xolatda bo'lib yo'l belgilari yetarlicha emas, yo'l yotiq chiziqlari 95% chizilmagan, yo'l yoritish chiroqlari aholi yashash punktlari va piyodalar utish joylaridan yetarlicha o'rnatilmagan, chorxalalarda tartibga soluvchi chiroqlar (svetaforlar) yetarlicha emas, yo'llardagi mavjud ko'priklar va quvirlar kirish-chiqish o'zunlari tozzaligi doimiy nazoratga olinmagan, yo'naltiruvchi tusiqlar va 1-toifali to'siqlar yetarlicha emas, avtomobil yo'llarida o'qqa tushuchi og'irlik hisobi olinmagan jumladan tuman markazi xududidan o'tuvchi umumiy foydalanishdagi atomobil yo'lida doyimiy tirbandliklar mavjud bulib, Kattaqo'rg'on,

Nurobod, Oqdaryo tumanlarini Qushrabort va Payariq tumanlari bilan Ishtixon tumani orqali bog'lovchi davlat ahamiyatidagi 4r 48 "Zarafshon trakti avtomobil yo'lining 63-70 km oralig'i yagona yo'l bo'lib, ushbu km oralig'i avtomobil yo'llariga qo'yilgan transport vositalarini o'tkazuvchanlik, qoplamaning yo'k ko'taruvchanlik qobliti, qoplamaning ravonligi, yo'lining transport ekpluatatsion ko'rsatgichlariga va boshqa shu kabi qo'yilgan me'yoriy talablarga mos kelmaydi.



Ta'mirtalab avtomobil yo'llarini tadqiqot natijasiga ko'ra dolzarligi bo'yicha guruhlariga ajratib ta'mirlash uchun ajratilgan budjed hisbidan sifatli mahsulotlardan foydalangan holda kerma ketlikda ta'mirlab, yo'l tarmog'ini to'g'ri shakillantirib og'ir yuk tashish uchun muljallangan transport vositalarini yunalishini tartibga olgan holda ava ekspluatatsiya ishlarini o'z vaqtida hamda uzluksiz bajarilishi nazoratga olinganda kutilgan natijaga erish mumkun.



Hudud avtomobil yo'lining belgilangan uchastkalarida transport-ekspluatatsion sifatlarini yaxshilash bo'yicha berilgan tavsiyalarni qo'llash natijasida bir yil davomida Avtomobil yo'l tarmog'i holatining yaxshilanishi hududning transportli ta'minlanganlik darajasini va mavjud yo'l tarmog'i sifatini oshiradi hamda qator salbiy ijtimoiy oqibatlar kelib chiqishining oldini oladi. Shunday qilib, avtomobil yo'l tarmog'ining yaxshilanishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy keskinligini kamaytiradi, kundalik ehtiyojni ta'minlovchi mahsulotlarni tashish va xizmatlar ko'rsatish tannarxini kamaytirish hisobiga aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar.

1. Кузиев А.У., Аликулов С.Р. Развитие и эффективное использование региональных сетей мультимодальных перевозок.- ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 10(88). Часть 2. 2020. С.-40-45. <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-i-effektivnoe-ispolzovanierregionalnyh-setey-multimodalnyh-perevozok>.
2. Elzbieta Macioszek a*, Marcin Staniek a, Grzegorz Sierpiński a Analysis of trends in development of freight transport logistics using the example of Silesian Province (Poland) - a case study 20th EURO Working Group on Transportation Meeting, EWGT 2017, 4-6 September 2017, Budapest, Hungary
3. "Ishtixon TYFK" DM . Ma'lumotnomasi. 20.08.2024 yil